



## ISHLAB CHIQRISHDA MATERIALLARDAN FOYDALANISHNI TAHLIL QILISH

**Turayeva Gulizahro Kaxxarovna**

*Guliston Davlat Universiteti  
o'qituvchisi*

**Shavkatov Umidjon Shuxrat o'g'li**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

**Jumanov Otabek Baxodir o'g'li**

*Guliston Davlat Universiteti talabasi*

***Annotatsiya.** Bu maqola korxonaning materiallardan foydalanishini va ishlab chiqarishni oshirishni o'rganish va tahlil qilishni taqdim etadi. Maqolada materiallardan foydalanish va ishlab chiqarish korxonlari ko'rsatmalari va statistik ma'lumotlar mavjud. Ishlab chiqarish tahliliga ko'ra, korxonlarda ishlab chiqarishni yanada yaxshiroq tashkil etish mumkin. Bu esa korxonalarining faoliyatini yanada rivojlantirib, ishlab chiqaruvchi sifatida muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** Korxonalar, materiallar, ishlab chiqarish, tahlil qilish, samara, unumdorlik, mehnat sarfi, ish vaqti.

### **Kirish:**

Korxonalar materiallar va ishlab chiqarish resurslarini tahlil qilishning ko'rsatmalariga ko'ra, korxonalar o'z faoliyatini samarali va sifatli bajarishda qanday muvaffaqiyatga erishganligini aniqlash imkoniyati mavjud. Ishlab chiqarishni oshirish uchun ishchilarning ta'minlanishi va bilimlari, korxonada ichidagi kommunikatsiya va hamkorlik tizimi, maqsadlarni amalga oshirish uchun resurslarni moslashtirish kabi ko'rsatmalar tahlil qilinadi. Ishlab chiqarishni oshirish uchun ta'minotni yanada yaxshiroq qilish uchun yangiliklar va innovatsiyalar bilan tanishtirishning ham muhim ahamiyati mavjud. Xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes-rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi

Korxonaning ishlab chiqarishni oshirishni tahlil qilishning bir nechta foydasi va vazifalari bor:



1. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha biznes-rejani asoslanganligi va tig'izligini aniqlash.

2. Korxonlarning mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha o'sish sur'ati, tarkibi, nomenklatura, assortimenti, sifati va bir tekisda ishlab chiqarishga baho berish.

3. O'tgan yilga nisbatan mahsulot hajmini o'sishi va uning sabablarini aniqlash.

4. Tuzilgan shartnoma majburiyati asosida mahsulotni yetkazib berish bo'yicha sotish rejasining bajarilishiga baho berish.

5. Mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotishni oshirish bo'yicha rezervlarni aniqlash va uning tarkibi hamda sifatini yaxshilash kabidir. Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini tahlil qilish. Mamlakat iqtisodiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida, ilmiy-texnika taqqiyoti sharoitida, ishlab chiqarishni jadallashtirish va aholining moddiy faravonligini yana ham oshirishda mahsulot sifatini yaxshilash kata ahmiyatga ega. Mahsulotning sifati deganda uning mo'ljallangan maqsadda foydalanishga yaroqli xususiyatlarining majmuasi tushniladi.

Mahsulot sifati bo'yicha navlilik rejasinig bajarilishi.

Navi	O'lchov birligi	Miqdori	
		Reja bo'yicha	Haqiqatda
1-nav	Ming dona	22890	28620
2-nav	Ming dona	12210	9875
3-nav	Ming dona	5210	3750
Jami	Ming dona	40310	42245

$$a) \text{reja bo'yicha} = (22890 * 1) + (12210 * 2) + (5210 * 3) = 1,56$$

$$b) \text{haqiqatda} = (28620 * 1) + (9875 * 2) + (3750 * 3) = 1,41$$

Hisobdan ko'rinishicha, navlilik koeffitsineta reja bo'yicha 1,56. Haqiqatda esa 1,41 ni tashkil qiladi. Demak, navlilik koeffitsenti 0,15 bandga ko'paygan. Navlilik koeffitsenti qanchalik birga yaqinlashsa, shunchaga nav yuqori bo'ladi. Agar navlilik koeffitsenti birga teng bo'lsa, u holda hamma mahsulot birinchi nav bilan ishlab chiqarilganligini bildiradi.

Ishlab chiqarish oshirish uchun korxonadagi ma'lumotlar to'plangan va tahlil qilingan bo'lishi kerak. Bu ma'lumotlar ishchi kuchining miqdori, sifati, taqdim etilayotgan xizmatlar va mahsulotlar kabi ko'rsatkichlardan iborat bo'lishi mumkin.



**Xulosa:** Korxonada faoliyatini boshqaruv tahlilini asosiy tamoyillari yordamida tahlil qilish orqali korxonada faoliyatini qay darajada olib borilayotganini aniqlash mumkin. Korxonaning o'tgan va hozirgi vaqtdagi faoliyatini tahlil qilib uning keying vaqt uchun eng samarali boshqaruv usulini tadbiq etishimiz mumkin bo'ladi. Hozirgi davrda mamlakatni iqtisodiyotini o'sishiga uni barqaror bo'lishiga asosan ishlab chiqarishdagi yutuqlar korxonada va tashkilotlardagi fan-texnika yangilanishi ishchi kuchi samaradorligi moddiy resurslardan oqilona foydalanish ishlab chiqarishda atrof-muhitga zarar yetkazmaslik kabilarning bo'lishi alohida etibor talab qiladi.

### Adabiyotlar ro'yxati:

1. A.B.Muxametov. B.Matrasulov.G.Turayeva T.:Buxgalteriya hisobi darslik. Ziyonashr. 2023.-347 b
2. A.B.Muxametov. U.Chorshanboyev. G.Turayeva T.:Boshqaruv hisobi darslik . Ziyonashr. 2024.-169 b
3. Muxametov, A., Abdurahimov, A., Matrasulov, B., & Samatqulov, M. (2021). IJTLAB CHIQARISH XARAJATLARINI TURKUMLASH VA ULARNING HISOBINI. *Iqtisodiyot va ta'lim*, (5), 351-358.
4. Taxirovna, A. S. (2023). EXPLORING LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS IN THE TRANSLATION OF STORIES: ENGLISH AND UZBEK PERSPECTIVES. *ENG YAXSHI XIZMATLARI UCHUN*, 1(6), 59-62.
5. Madinabonu, A., Nurjahon, N., & Mehriniso, M. (2023, April). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTI. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 93-95).
6. Gulizaxro, T., Mavlyuda, I., Shaxnoza, A., & Hilola, S. (2023, April). Buxgalteriya hisobi fanini rivojlanishida raqamlashtirishni takomillashtirish. In " *Conference on Universal Science Research 2023*" (Vol. 1, No. 4, pp. 102-104).
7. Gulizahro, T., Iroda, O., & Sevara, M. (2023). Pul mablag 'larining korxonada iqtisodiyotida tutgan o'rni. " *Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari*" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10), 45-47.
8. Sharipova, S. (2023). THE ROLE OF COACHING TECHNOLOGY IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AND ABILITIES OF ADULTS IN LANGUAGE LEARNING PROCESS. *Solution of social problems in management and economy*, 2(13), 5-12.
9. To'yeva, M. S. (2022, November). YANGI O'ZBEKISTON ORIFA AYOLLARI VA G'ARB AYOLLARINING JAMIYATDAGI MAVQEYI VA ULARNING HUQUQLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 74-81).
10. Рахматуллаева, Ф., & Шаробиддинов, А. (2023). YALPI HUDUDIY



MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO 'LLARI. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/4), 140-146.

11. Taxirovna, A. S. (2024). Features of Uzbek and English story translations. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157), 2(2), 202-208.
12. Sharipova, S., & Xalimova, F. (2024). ACTUAL PROBLEMS OF TEACHING A LANGUAGE IN THE CLASSROOM AND THEIR SOLUTIONS. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 133-135. <https://doi.org/10.2024/41yemx68>

